



*Obidaxon* **FAYZULLAYEVA**,  
Guliston davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori  
E-mail: obida\_fayzullayeva@mail.ru

TAFU professori, p.f.d Q.Yo'ldoshev taqrizi asosida

### RAMZLI VA METAFORIK TASHBEHLAR IFODASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Muhammad Siddiq she'rlaridagi o'ziga xoslik, o'zgacha shaklga ega she'rlar misolida o'rganilgan bo'lib, ularning aksari kichik hajmli bo'lishi bilan birga mazmunan zalvorli she'rlar ekanligi masalasi tadqiq etilgan. Muhammad Siddiq she'rlaridagi mazmun siqiligi, metaforik obrazlar, poetik mushohadakorlikdagi individuallik, original tashbehlar qo'llanilishi masalalariga ham e'tibor qaratilgan. Bunda tadqiqot obyekti qilib shoirning "Musofir daraxt" she'riy to'plami olingan. Lirik qahramon kechinmasi tavsifidagi o'ziga xoslik, poetik obraz ishtirokidagi badiiy voqelik va boshqalar o'rganilgan, ramzli va metaforik tashbehlar ifodasi originallikni ta'minlaganligi haqida xulosaga kelingan.

**Kalit so'zlar:** Ramzli va metaforik tashbehlar, kichik she'riy shakllar, badiiy g'oya, she'riy unsurlar, poetik til, mavzular ko'lami, janrlar, makon va zamon masalasi va boshqalar.

### SYMBOLIC AND METAPHORICAL ILLUSTRATIONS

Annotation

This article studies the uniqueness of Muhammad Siddiq's poems, using the example of poems with a unique form, and the issue of the fact that most of them are small in size but are also rich in content is studied. Attention is also paid to the density of content, metaphorical images, individuality in poetic observation, and the use of original metaphors in Muhammad Siddiq's poems. The poet's poetry collection "Alien Tree" was taken as the object of research. The uniqueness in the description of the lyrical hero's experience, artistic reality in the participation of poetic images, etc. were studied, and it was concluded that the expression of symbolic and metaphorical metaphors provided originality.

**Key words:** Symbolic and metaphorical metaphors, small poetic forms, artistic idea, poetic elements, poetic language, scope of topics, genres, issues of space and time, etc.

### СИМВОЛИЧЕСКИЕ И МЕТАФОРИЧЕСКИЕ ИЛЛЮСТРАЦИИ

Аннотация

В данной статье исследуется уникальность стихов Мухаммада Сиддика на примере произведений уникальной формы, а также рассматривается вопрос о том, что большинство из них, будучи небольшими по объему, богаты содержанием. Внимание уделяется плотности содержания, метафорическим образам, индивидуальности поэтических наблюдений и использованию оригинальных метафор в стихах Мухаммада Сиддика. В качестве объекта исследования выбран сборник стихов поэта «Чужое дерево». Изучены уникальность в описании переживаний лирического героя, художественная реальность в участии поэтических образов и т.д., и сделан вывод о том, что оригинальность стихов обусловлена использованием символических и метафорических метафор.

**Ключевые слова:** Символические и метафорические метафоры, малые поэтические формы, художественная идея, поэтические элементы, поэтический язык, тематика, жанры, вопросы пространства и времени и т.д.

**Kirish.** Ramzli va metaforik tashbehlar badiiy adabiyotda obrazlilik, ta'sirchanlik va chuqur falsafiy ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ular amaliy tasviriy tuzilmalardir. Ular oddiy so'zlar bilan aytib bo'lmaydigan tuyg'u va g'oyalarni jonli tasvirlar orqali o'quvchiga yetkazib beradi.

Metafora – bu poetik ko'chim bolib, o'xshashlik asosida ma'no ko'chishiga asoslangan. Metaforik ifodalar she'riyatni ta'sirchan qiladi. Ramzli (simvolik) tashbehlar chuqur falsafiy yoki ruhiy ma'noni yashirin shaklda ifodalovchi badiiy vositadir. Navoiy asarlarida jonsiz tabiat unsurlari – tosh, ma'dan, yer kabilar ruhiyat, iroda, sabr va ilohiy qudrat ramzi sifatida talqin etiladi. Falsafiy timsol "Saddi Iskandariy" dostonida ko'rinadi. Unda tosh jism emas, balki qat'iyat ramziga aylangan. Obrazlilik realistik idrok va ifoda bilan ruhiy kechinmalar sintezini birlashtiradi. She'riyatda ham ijtimoiy davr voqeligi, inson psixologiyasi va xayoliy qarashlar, lirik qahramon kechinmalari ramzlar orqali namoyon bo'ladi.

Metaforik tafakkur yuqori bosqich bo'lib, o'quvchidan ijodiy fikrlashni talab qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Metafora va ramzning inson tafakkuri, dunyoqarashi bilan bog'liq ekanligi olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Bunda metaforaga san'at emas, balki fikrlash usuli sifatida qaralishiga e'tibor berilgan. Mumtoz adabiyotda ramziylikni Alisher Navoiy asarlari misolida o'rgangan olimlar sifatida Abduqodir Hayitmetov, Ibrohim Haqqul kabilarni esga olsak, ular ramziy obrazlar (gul va bulbul, sham va parvona, sahro) kabilarni tasavvuf ramzlari bilan bog'lab tadqiq etganlarini ko'ramiz.

Ramzli metafora xususida ham ko'p tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, Baxodir Sarimsoqov o'zbek adabiyotshunosligida badiiy shartlilik, ramz va majoz masalalarini, ya'ni u ramzning majozdan farqi va badiiy obrazlar tizimidagi o'rnini tadqiq etgan (Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 252 b). Adabiyotshunos Yo'ldoshali Solijonov esa zamonaviy o'zbek she'riyati va nasrida metafora, ramz va simvolik obrazlar,

poetik tafakkur masalalarini o'rgangan (She'riyatning sirlari jilvalari. – Toshkent: 1986, Badiiy mahorat sirlari. – Toshkent: 2022). Uzoq Jo'raqulov esa badiiy nutq, tashbeh va metaforik ifodalar, nasriy matndagi ramziylik masalalarini tadqiq etgan ("Xamsa"da "oshiq – ma'shuqa – raqib "uchligi" (2016). Bundan tashqari Eshonqulov J. (Folklor: obraz va talqin. – Qarshi: Nasaf, 1999), Jumatova N. (Hozirgi o'zbek she'riyatida rang bilan bog'liq ramziy obrazlar: Filol. fan. nom.... diss. – Toshkent, 2000), Ochilov O. (VII-X asrlar tang davri she'riyatida ramzlar semantikasi: Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori....diss. – Toshkent, 2018), Sharopov A. (Olamlar ichra olamlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978), Mirzoxidova L. (XI-XII asrlar adabiyotida majoziy tasvir badiiyati. Filol. fan. doktori ... – diss. – Samarqand. 2018) kabilar ham ramzli va metaforik tashbehlar masalasiga turlicha munosabatda bo'lganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek she'riyatida ramziylik va metaforik yondashuv masalasiga e'tibor alohida. Ramzli va metaforik tashbehlar she'ning badiiy-estetik xususiyatlariga, g'oyasi hamda ijodkor badiiy niyatiga qay darajada xizmat qilganligi xususidagi fikrlar ushbu maqolada aks ettirilgan.

Ramzli va metaforik tashbehlar o'ziga xos xususiyatlari XXI asr o'zbek she'riyatining ko'zga ko'ringan vakili Muhammad Siddiq she'rlari misolida tadqiq etilgan, chunki shoir bu davr she'riyatida kichik hajmli she'rlar yaratib, ularda ramzi va metaforik tashbehlar qo'llanilishi bo'yicha o'ziga xos namunalar yaratgan.

Maqolada qiyosiy-tipologik, badiiy tahlil, genetik, struktural tahlil metodlaridan umumli foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Yangi davr o'zbek she'riyatining diqqatga sazovor vakillaridan biri Muhammad Siddiqning shu paytgacha "Yohu" va "Dugoh" nomli she'riy to'plamlari chop etilgan. "Musofir daraxt" kitobi 2025-yilda nashr etildi. Mazkur maqolada shu she'riy to'plam she'rlari tahlil etilgan.

Shoir Muhammad Siddiq ijodi o'ziga xos bo'lib, kichik va lo'nda misralar, ramzli va metaforik tashbehlardan tashkil topgan. Bugungi talotum zamonda "tillalarga teng bo'lgan" vaqt masalasida o'z she'rxoniga ko'maklashuvchi qisqa va teran poetik topilmalar shoirning o'ziga xos uslubini tashkil etgan. Masalan:

Bilmadim, negadir  
Sog'inchlarimdan  
Qalampirmunchoqning  
Hidi keladi.

Mazkur to'rt misra-yu, olti so'zdan iborat she'rda bir qancha muddat shaharda turib, o'z qishlog'ini, beg'ubor bolaligini, qadrton go'shasini, unga qalampirmunchoqni balogardon qilgan mehribon onasini sog'ingan qalb o'rtanishini ilg'ash mumkin. Mana shu bolalikning beg'ubor damlarini qumsash hissi mazkur to'plamagi aksar she'rlarda kuzatiladi. Xususan, lirik qahramonning o'z onasining non yopish jarayonini tavsiflab, uni olov purkayotgan ajdahoga qarshi kurashayotgan pahlavonga mengzaganida, onasining tikuv mashinasini paravozga, chok izlarini relslarga o'xshatganida, sarishta onasi shamol to'zgitgan osmon uvadasini supurishga shaylanishini tasavvur qilganida, qo'qongilosni chumchuqlardan asrab bolasiga ilinganida, "kirlagan" ko'nglini yuvib berishini onasidan o'tinganida aynan shu hislar hamroh ekanligiga amin bo'lish mumkin.

Shoir she'riyatiga an'anaviy ishq-muhabbat mavzusi ham begoni emas. Ba'zan hijron azobi tavsifi uchun "Hilol – yuragimning tilingan joyi" desa, ba'zan "Sen"dan "Siz"ga o'tishi oqibatida o'z yoridan uzoqlashib, "Sensiz" bo'lib qolgan holatini bayon etadi. Choy shamasini yorning kelishiga sha'ma qilishini aytish orqali ham tajnis birliklar imkoniyatini ko'rsata bilgan. Yana bir she'rda ot so'zi orqali so'z o'yini

qilib, otingiz so'zi ham ism, ham miniladigan jonivor ma'nosida ishlatilgan:

Kelasiz,  
Siz go'zal otingiz bilan,  
Shirin diydoringiz etasiz tortiq.  
Menchi boray desam yaxshi otim yo'q,  
Hamon yoningizda men yomonotliq.

Yorning kiprigidagi ko'z yosh tomchisida butun bir Yer sharini ko'rishi ham shoirona topilma. Shuningdek, yangi chiqqan oyning yorning bir dona to'kilgan kiprigiga – Yor o'tdimi somon yo'lidan, to'kilibdi dona kiprigi shaklida o'xshatishi ham yangicha tashbehanish deya baholanadi. Ma'shuqaning oshiq huzuriga kelishi "kaftiga qor parchasi tushishi"ga o'xshatilib, uning ketishi o'sha qor parchaning erib, ko'z yosh shaklida qolib ketishi holati ham she'rxon tasavvurida yangicha ko'rinish paydo qiladi. "Istarangda isinib oldim" deyilishi esa yor diydoriga musharraf oshiq holatini ifodalagan.

To'plamdagi she'rlar orasida Ona Vatan mavzusi ham alohida o'rin tutadi. Shoir Turkistonga ruslar tomonidan bosib olinishi holatini "Holimni aytaymi, bir jumla bilan? To'plarga tutilgan minoradekman!" deya sharhlash orqali ona zaminning bosqinlar natijasidagi og'ir ahvolini bildirmoqchi bo'ladi va shu bilan birga bundan ta'sirlangan lirik qahramon qalbidagi abgorlik tavsifi ham anglashiladi.

Lirik qahramon bo'lgan shoir o'z holati ifodasi uchun bir qancha tashbehlardan foydalangan. Xususan, bir o'rinda "Chumchuq cho'qilagan uzum yuragim" desa, bir o'rinda pishiqchilik mavsumida barcha mevalar larzonlashsalar-da, lekin o'zi xomligicha qolib ketganligini bayon etish orqali o'zidan ko'ngli to'lmaganligi, xotiri jam emasligini bildirmoqchi bo'ladi. Bir o'rinda esa kaftiga suv to'ldirib chopayotganlik holati borini boy berib, evaziga nimadir topishga urinish, to'g'rirog'i, o'zini aldash deya baholanganiga guvoh bo'lamiz.

Ijodkor "Ko'zlaring haqida" she'rda anafora hodisasidan foydalanib, ko'z obraziga zalvorli ma'no yuklashga erishadi:

Ko'zlaringda sokin ummon bor,  
Ko'zlaringda yulduzli osmon.  
Ko'zlaringda yo'l erur poysosiz,  
Ko'zlaringda to'rtala tomon.

Bir o'rinda shoir "Lokatsiya tashla ko'nglingdan" deyish orqali ma'shuqa ko'nglidan joy olish umidi ifodasini zamonaviylashtiradi. Bir o'rinda "Ishq yuragim kuyadek yedi" degan poetik mushohada orqali hijronidan ilma-teshik bo'lgan qalbnii tasvirlashga harakat qiladi. "Kun boqmagan kungaboqarman" she'ri ham unga qiyo boqishmaganligidan hijronzada bo'lib turgan qalb tasviri deyishga asos bo'ladi. "Pushti ro'mol" deb nomlangan she'rda shoir ushbu metaforik obrazni muvaffaqiyatli qo'llaydi:

Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi,  
Lekin o'tganini ayta o'zimdan.  
Banogoh uchragan bir pushti ro'mol  
Butun dunyolarni yopdi ko'zimdan.

Oshiq umri ma'shuqani uchratgan damlardan boshlangan va faqat uning yodi bilan o'tgan, ko'ziga boshqa hech narsa ko'rinmagan. Ya'ni chin oshiqqlar uchun hayot ma'shuqani o'z qalbiga jo qilish va uning yodi bilan yashashdan iborat deb bilishida ko'rinadi. Chin oshiqlik holati ifodasi shoirning savol-javob shaklidagi she'ri orqali ham berilgan. Unda Yaratganning bandasidan qanday yashab o'tganligi haqidagi savoliga:

Xudojon, men uni  
bir bor ko'rdim-u  
qolgan umrimni hech  
eslay olmayman...

shaklidagi javobidan ishqqa muhtalo qalbning umri mazmuni anglashiladi.

Islomiy mavzudagi ayrim she'rlarda ham so'z o'yinlari qilingan o'rinlar uchraydi. Xususan, Ka'batullohdagi, qaratosh qarshisida turgan lirik qahramon unga tik qarashga botina olmayotganligi o'z qalbidagi "qora toshlar" – gunohlaridan forig' bo'lmaganligi holati sifatida aks ettirilgan. Yana bir o'rinda lirik qahramon besh kunlik dunyoda inson ko'ngli besh vaqt namoz turlaridan nega aynan xuftonga o'xshatilishiga hayratini ritorik so'roq tarzida beradi. Boshqa bir o'rinda Rasulullohning mushriklarga Allohning qudratini ko'rsatish uchun Oyni ikkiga bo'lib ko'rsatganlik voqeasini inson ko'ngli darz ketsa hech qachon butlanmasligi holatiga asos sifatida keltiradi:

Oy-ku yana birlashdi zumda,  
Rasul haq, deb dalilin aytib,  
Lek gumonlar ko'ngilni bo'lsa,  
But bo'larmi yana u qaytib.

"Uyqu oldidan tilak" deya sarlavhalangan she'rda "Ilinjim, Habibim kirsam tushimga, So'ngra kelmasam ham mayli hushimga" deya tilak bildirish orqali musulmlarning azaliy orzusi Haq vasliga erishish tilagi bayon etiladi. "Sujud" she'ridagi sajdaga borgan nomozxonning holati yerga o'z yaratuvchisini naqadar yaxshi ko'rishini aytayotgan inson holatiga o'xshatilishi ham o'ziga xos. Bir she'rda shoir:

Chil-chil sindi  
oynadek ko'nglim,  
Yer bilan  
bir bo'lib yotadi.  
Endi yursam  
tovonlarimga  
Ko'nglim  
siniqlari botadi.

deyilishi inson ko'nglining darz ketishi va chil-chil sinishi unga qattiq ozor berish oqibati ekanligi va uni butlab bo'lmazligi holatini ifodalaydi.

Shoir peyzaj lirikasida yil fasllari va tabiat hodisalaridan foydalanib, yangicha tashbehanishlarni yuzaga keltiradi. Bir o'rinda xazonrezgi chog'ida to'kiladigan sarg'aygan barglarni o'zining dil izhori maktublariga mengzasa, bir o'rinda yor ko'nglini izg'irinda isinadigan cho'g' to'la tanchaga o'xshatadi. Bir she'rda esa yor ko'zlari xazinaga, inju to'la ko'lga o'xshatiladi. Bir o'rinda esa oshiq "Ninachidek yozim boy berdim, maylimi ko'nglingda qishlasam" deyish orqali yor ko'nglidagi joy olishga urinishini ifodalaydi. Tashbehanishning yangicha holati "Ko'z yoshlarim – ipi uzilgan tasbeh, Tonggacha urindim yig'ib olmoqqa..." degan misralaridagi oshiqning abgor holati ifodasida ko'rinadi.

Shoir ijodida "Oqqayin" deb nomlangan she'r ham mavjud bo'lib, ushbu she'rda kitob sarlavhasiga chiqarilgan "musofir daraxt" atamasi qo'llanilgan:

Bobomdek  
vatandan judosan,

Aybing ne bilolmay karaxtsan,  
Ayt, qachon surgunga uchradimga,  
Oqqayin,  
musofir daraxtsan.

Ya'ni rus diyoridan olib kelingan daraxtning bu o'lkaga nima sababdan keltirilganligini bilmaslik holati, qatag'on yillari surgun qilingan bobolarimizning ayblari nimada bo'lganligini bilmaganligi holatiga o'xshatilmoqda. Umuman, musofir daraxt obrazini musofirlikda qiyinchiliklarga uchragan vatandoshlarimizning umumlashma obrazi deya talqin etish mumkin. Mashhur bolalar shoiri Anvar Obidjon vafoti munosabati bilan yozilgan she'rda daraxt obrazi ushbu ijodkor siyosini anglatmoqda:

Aprel yaxshilika burkangan olam,  
Behilar pushtirang gullagan edi.  
Sovuq epkin tegdi nogoh yuzimga,  
Qaydadir bir daraxt qulagan edi.

Bir o'rinda shoir "Kumush qishni zaharladi Zaynab bahor" deyish orqali ham ushbu fasllarga xos jihatlarga, ham mashhur asar qahramonlari taqdiridagi o'xshashliklarga urg'u bermoqda.

Muhammad Siddiqning ijod jarayoni ifodasi haqidagi "Orzu" deb nomlangan she'ri shoirlikning tiynati, ijod onlari haqidagi o'ylari va orzulari ifodasidan iborat:

Hislarim to'zg'igan momaqaymoqday,  
Ilhom, yonginamda o'tlagan tulpor.  
Nega tosholmayman qaynar buloqday?  
Mudroq dilim qachon bo'larkan bedor?

Bunda lirik qahramon bo'lgan shoir o'zining momaqaymoqday to'zg'igan tuyg'ularini yoki yonginasida o'tlayotgan ot shaklidagi ilhom parisini jilovlay olmayotganligidagi tashvishda ekanligini bayon etgan.

Uloqqa kelganning nomi chavandoz,  
Kim seni tanimas, kimlar taniydi.  
To'yib yozolmagan ustozlar haqqi,  
Bitta na'matagim bo'lsa, qaniydi.

Ya'ni ijodkor bunda ustoz ijodkorlar kabi xalq dilidan joy oladigan birgina obraz yoki she'rga ega bo'lish orzusini bayon qiladi.

Mazkur to'plamdan ijodkorning tarjimonlik borasidagi izlanishlari ham mansuralari ham o'rin olgan. ularda ham original mushohadakorlik ko'zga tashlanadi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganimizda, Muhammad Siddiq she'rlari o'ziga xos konstruksiya, o'zgacha shaklga ega she'rlar bo'lib, ular orasida bir misrali – ignabarg va boshqa yangicha shakllar ham uchraydi. Ijodkor she'rlarining aksari qisqa hajmli, lekin mazmunan zalvorli she'rlar. Ularga xos jihatlar sifatida mazmun sifqligi, metaforik obrazlar, poetik mushohadakorlik individualligi, original tashbehar qo'llanilishi kabilarni keltirish mumkin. Shoirning "Musofir daraxt" to'plami she'rxonlar ko'ngliga xush yoqishiga, insonlar qalbidan chuqur joy olishiga ishonamiz. Ta'timli she'rlar ko'plab muxlislarga ega bo'lishga arziydir.

#### ADABIYOTLAR

1. Faizullayeva, O.H. (2022). Artistic Conditionality and Poetic Function of Signs in Lyrical Series. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 14, 20-29.
2. Fayzullayeva, A. (2010). Özbek Şairi Rauf Parfi Öztürk'ün Şiir Dünyası. Türk Dünyası İncelemeleri Dergisi, 10(2), 173-184.
3. Kholbekovna, F.O. (2021). The Issue Of Artistic Idea In Poetry. European Scholar Journal, 2 (4), 233-236.
4. Mamatkulov, M., & Fayzullayeva, O. (2024). Expression Of Symbols And Allegorical Images In Lyric Cycles. Modern Science and Research, 3(1), 1-7.
5. Mirzoxidova L. XI-XII asrlar adabiyotida majoziy tasvir badiiyati. Filol. fan. doktori ... – diss. – Samarqand. 2018.
6. Muhammad Siddiq. Мусофир дарахт. – Т.: Sahhof. 2025.
7. Rakhmonkulovich, M.M. (2021). Folklore traditions in the epos of sayyadi "Tohir and Zuhra". ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 548-556.
8. Sarimsakov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent: Fan, 2004.
9. Жуматова Н. Ҳозирги ўзбек шеърятда ранг билан боғлиқ рамзий образлар: Филол. фан. ном.... дисс. – Тошкент, 2000.
10. Очилов О. VII-X asrlar танг даври шеърятда рамзлар семантикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори....дисс. – Тошкент, 2018. – В. 16.
11. Шаропов А. Оламлар ичра оламлар. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978.
12. Эшонкулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши: Насаф, 1999.